

BOLALARDA QANDLI DIABET KASALLIGINI UCHRASHI, SABABLARI VA
PROFLAKTIKASI

Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Elmurodova Lenara Xudayberdi qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Stajyor assistanti

Mo'sayeva Oltinoy To'yichiboy qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Stajyor assistanti

Annotatsiya: *Maqolada bolalarda qandli diabt kasalligi uchrashi, sabablari, klassifikatsiyasi va praflaktikasi , bugungi kundagi statistik ko'rsatkichlari haqida so'z boradi.*

Kalit so`zlar: *Qandli diabt, giperglykemiya, tranzitor, Langergans orolchasi, yondosh kasallik, Uolkott-Rallison sindromi*

Bolalarda qandli diabet - yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yuzaga chiqadigan patologik holat bo'lib, bunda giperglykemiya va oshqozon osti bezining endokrin qismi B-hujayralari funksiyasi buzilishi natijasida insulin gormoni yetishmasligi kelib chiqadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda qandli diabet ilk bor Kistel tomonidan 1852-yilda qayd etilgan. Ushbu kasallik tarqalish darajasi har 300-400 ming chaqaloqni 1tasini tashkil etadi, 55-60% holatlarda kasallikning tranzitor shakli uchraydi. Doimiy bolalar qandli diabeti kam holatlarda qayd etiladi va ko'pgina sindromlardan iborat bo'lgan kasalliklar guruhibiga kiradi. O'g'il bolalar va qiz bolalar deyarli bir xil nisbatda kasallanishlari mumkin, ammo ayrim sindromlar ko'proq o'g'il bolalar uchun xarakterli. Kasallikning nasliy o'tishi ma'lum bir genetik anomaliyalarga bog'liq bo'ladi, patologiya autosom-dominanat ko'rinishida va autosom-retsessiv ko'rinishda berilishi mumkin.

Bolalarda qandli diabetning etiologiyasi kasallikning klinik shakliga bog'liq bo'ladi. O'tib ketuvchi bolalarda qandli diabeti oshqozon osti bezi Langergans orolchasidagi B-hujayralarning to'liq shakllanmasligi natijasida kelib chiqadi. To'liq yetilmagan hujayralar o'z funksiyasini to'liq bajar olmaydi, ya'ni hujayralar glikemiya ko'tarilishiga ta'sirlanmaydi. Bunda qondagi doimiy insulin miqdori normal ko'rsatkichlarda bo'lishi mumkin.

Ko'p hollarda kasallik sporadik ko'rinishda yuzaga chiqadi. Bundan tashqari kasallikka nasliy moyillik ham aniqlangan, bunga sabab VI xromosomaning bir shoxida genlarida mutatsiya ro'y berishi ham bo'lishi mumkin. Ammo, ushbu genlar mutatsiyaga uchrashi doimiy qandli diabet shakllanishiga ham sabab bo'la oladi.

Persistensiyalanuvchi bolalar qandli diabetda - B-hujayralar tuzilishida, bezning barcha qismida yoki insulin ishlab chiqaruvchi orolchalarda anomaliya ro'y beradi.

Buning natijasida insulin gormoni butunlay yetishmaydi. Bunga sabab nasliy mutatsiyaga uchragan genlardir.

Bolalar qandli diabeti rivojlanishini tezlashtiruvchi anomaliyalarga quyidagilar kirishi mumkin: oshqozon osti bezi gipo yoki aplaziyasi, qondagi glyukoza miqdoriga sezuvchanlik yo'qolishi, (Uolkott-Rallison sindromi) - insulin sintezi buzilishi, to'qimalarining autoimmune shikastlanishi.

Doimiy shaklida hujayra mitoxondriyalarida patologiyalar kelib chiqadi. Ayrim hollarda kasallik shakllanishida ona homiladorlik vaqtida, ya'ni homiladorlikning birinchi uch oylikda o'tkazgan entereovirusli kasalliklari ham rol o'ynashi mumkin.

Bolalar qandli diabeti klassifikatsiyasi va klinik belgilari

Bolalar qandli diabetining ikki xil asosiy shakli farqlanadi:

O'tib ketuvchi yoki tranzitor bolalar qandli diabeti. Eng ko'p tarqalgan shakli. Davo muolajalarining qandayligidan qat'iy nazar kasallik belgilari bola 3 oyligida yo'qolishni boshlaydi. Kasallik belgilari butunlay yo'qolishi 6 oylikdan 1yoshgacha bo'lgan davrda ro'y beradi. Katta yoshlarda kasallik qaytalanish ehtimoli ham bor.

Doimiy bolalar qandli diabeti. Ko'pgina sindromlardan tashkil topgan kasalliklar guruhiga kiradi. Butun umrlik insulin bilan davolanishga to'g'ri keladi.

Kasallikning tranzitor va doimiy shakli klinik belgilari (yondosh kasallik belgilari bo'limganda) deyarli bir xil ko'rinishda bo'ladi. O'tib ketuvchi qandli diabet belgilari - bola homiladorlik vaqtida rivojlanishdan ortda qolishi, bola dunyoga kelganida tana vazni juda pastligi kuzatiladi. Bolaning umumiy ahvoli sezilarli darajada og'irlashmaydi - bemor kam harakat, holsiz, ishtahasi past yoki butunlay yo'qolgan bo'lishi mumkin. Koma holatlari xos emas. Bola to'liq oziqlansa ham tana vazni sezilarli darajada ortmaydi. Bolalar qandli diabeti uchun xos bo'lgan asosiy belgi - poliuriya va degidratatsiyadir, ko'p hollarda bemor og'zidan atseton hidi kelib turadi.

Kasallikning doimiy shakliga ham yuqorida keltirib o'tilgan belgilarning barchasi xos, ammo kuchliroq namoyon bo'ladi. Qo'shimcha belgilari u yoki bu sindrom tarkibiga kirishiga bog'liq bo'ladi. Kasallik giperglykemiya boshqa endokrin va immunologik kasalliklar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Bunda klinik belgilari - ekzema, surunkali diareya. autoimmun tireoidit, gemolitik anemiya belgilari bilan birgalikda kechadi. Uolkott-Rallison sindromida esa qandli diabet bilan bir vaqtida buyrak yetishmovchiligi, aqliy zaiflik, hepatomegaliya va spondiloepifizar displaziya ham yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Разин, Стрелков: Гематогенный остеомиелит у детей – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2018. – 432с.
2. Р. Койко, Д. Саншайн, Э. Бенджамини. Иммунология. – М.: Академия, 2008. – 368 с.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)

3. Р.М. Хайтов, Г.А. Игнатьева, И.Г. Сидорович. Иммунология. – М.: Медицина, 2000. – 432

с.

4. ХИ Ширинов, НС Ибрагимова, БФ Ибрагимов, НЕБЛАГОПРИЯТНЫЕ ИСХОДЫ

СИНДРОМА ПОЛИКИСТОЗНЫХ ЯЧНИКОВ У МОЛОДЫХ ЖЕНЩИН, Journal of new

century innovations 26 (3), 185-189

5. Kudratova Z. E. et al. The Role of Cytokine Regulation in Obstructive Syndrome of Atypical

Genesis in Children //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 6279–

6291-6279-6291.

6. Korovina N.A., Zaxarova I.N., Dmitrieva Yu.A. Sovremennye predstavleniya o fiziologicheskoy roli vitamina D u zdorovyx i bolnyx detey // Pediatriya. Jurnal im.

G.N. Speranskogo. — 2008. — T. 87. — № 4. — S. 124–130. [Korovina NA, Zakharova IN, Dmitrieva YA. Current ideas about the physiological role of vitamin

D

in healthy and sick children. Pediatriia. 2008;87(4):124-130. (In Russ.)]

7. Vitamin D i reproduktivnoe zdorove jenjchiny / Pod red. I.Ye. Zazerskoy. — SPb.: Eko-Vektor, 2017. [Vitamin D and women's reproductive health. Ed by I.E. Zazerskaya. Saint Petersburg: Eco-Vector LLC; 2017. (In Russ.)]

8. Malsev S.V., Mansurova G.Sh., Zakirova A.M. i dr. Rol vitamina D v sisteme mat — plasenta — plod. Prakticheskaya meditsina. 2016;1(93):26–31.

9. Мусаева О. Т., Соатов М. М., Халилова Б. Р. Основные Возрастные Заболевания И Состояния Распространенные Среди Мужчин И Женщин Пожилого Возраста //Research Journal of Trauma and Disability Studies. – 2023. –

Т. 2. – №. 4. – С. 14-25.

10.Файзобоев П. Н. и др. ОЗИҚ-ОВҚАТМАХСУЛОТЛАРИДАН БАКТЕРИАЛ ЗАҲАРЛАНИШНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НАССР ҲАЛҚАРО ТИЗИМИНИ ТУТГАН ЎРНИ //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 226-229.

11.Faiziboev Pirmamat Normamatovich, Ibragimova Fairuza Sobirovna, Makhmaraimov Fuzail Ilkhomovich, Abdurakhmonova Shakhnoza Sokievich, & Fayziboev Bekzod Pirmamatovich. (2024). HYGIENIC ASSESSMENT OF CRITERIA FOR SAFETY AND NUTRITIONAL VALUE OF FRUITS AND VEGETABLES. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(1), 77–81.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)**

12.Faiziboev Pirmamat Normamatovich, Fakhritdinov Shokhrukh Fakhritdinovitch,

Roziklov Dilshod Allayorovich, Obloberdiev Okhunjon O'tkirovich, & Fayziboev Bekzod Pirmamatovich. (2024). ESTIMATES OF CONSUMPTION OF CONFECTIONERY PRODUCTS IN THE AVERAGE DAILY DIETS OF THE POPULATION IN THE SUMMERAUTUMN SEASON. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(1), 142–149.

13.Файзибоев Пирмат Норматович, Нарзуллаева Гулмира Тошемир қизи,

Фахритдинов Шохрух Фахритдин ўғли, & Файзибоев Бекзод Пирмат ўғли. (2024). САБЗАВОТ ВА ПОЛИЗ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ ХАВФСИЗЛИК МЕЗОНЛАРИ ВА ОЗУҚАВИЙ ҚИЙМАТЛИЛИГИНИ ГИГИЕНИК БАҲОЛАШ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(1), 136–141.

14.Файзибоев Пирмат Норматович, Ибрагимова Файруза Собировна, Махмадимов Фузаил Ильхомович, Абдурахмонова Шахноза Сокиевич, & Файзибоев Бекзод Пирматович. (2024). ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА КРИТЕРИЕВ БЕЗОПАСНОСТИ И ПИЩЕВОЙ ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ. INTERNATIONAL JOURNAL ЦЕННОСТИ RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(1), 71–76.